



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2021 - yil 3 - dekabr

VI-34-77-8-112-K/21

Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tuman mahalliy budjetining 2021 yil boshidagi erkin qoldig‘i hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 28, 119 hamda 126-moddasiga asosan tuman mahalliy budjetining 2021 yil boshidagi erkin qoldig‘i hisobidan mablag‘ ajratish bo‘yicha xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 126-moddasiga muvofiq, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligining 2021 yil boshidagi erkin qoldig‘i hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalliy budjetining 2021 yil boshidagi erkin qoldig‘i hisobidan joriy yilda ajratilgan ajratilgan mablag‘larning hozirda foydalanilmasdan qolgan qismi tuman mahalliy budjetiga markazlashtirib olinsin.

Tuman mahalliy budjetining 2021 yil boshidagi erkin qoldig‘i hisobidan:

- Tuman tibbiyot birlashmasiga moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash maqsadida 20 000 000 (*yigirma million*) so‘m;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi “«Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5048-sonli qaroriga asosan tumandagi ichki yo‘llarni ta‘mirlash maqsadida yoqilg‘i-moylash materiallari olish uchun 18 108 500 (*o‘n sakkiz million bir yuz sakkiz ming besh yuz*) so‘m yo‘naltirilsin.

4. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning

rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli, samarali va qonuniy foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Kenjaev zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Жарқўрғон туман ҳокими



О‘рақов В. А.